Loyiha ID raqami 57250

Holati: mablag‘lar ajratilmoqda

Joylashuvi

O‘zbekiston

Tarmoq

Moliya muassasalari (FI)

Loyiha turi

Xususiy sektor

Ekologik toifa

Moliyaviy muassasa (FI)

Tasdiqlangan sana

2026-yil 14-iyul

E’lon qilingan sana

2026-yil 15-iyul

Loyiha tavsifi

Davr Bankka (DB) O‘zbekistondagi yoshlar tomonidan boshqariladigan/yoshlar egaligidagi munosib mikro, kichik va o‘rta korxonalarni (MKO‘K) moliyalashtirish uchun 25 million AQŞ dollari ekvivalentida ustuvor (senior) kredit ajratilishi. Kredit har biri 12,5 million AQŞ dollaridan iborat ikkita teng transhdan tashkil topadi. Kredit AQŞ dollarida yoki sintetik so‘mda taqdim etiladi.

Loyiha maqsadlari

Kredit DBga O‘zbekistondagi yoshlar tomonidan boshqariladigan/yoshlar egaligidagi bizneslarni moliyalashtirish imkonini beradi hamda mamlakatda yosh tadbirkorlarning moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashga hissa qo‘shadi.

O‘tish davriga ta’siri

Kutilayotgan o‘tish davri ta’siri (ETI) bahosi: 71

Markaziy Osiyo Yoshlar Biznesda dasturi doirasida DBga ajratiladigan kredit dasturning umumiy maqsadlariga hissa qo‘shadi hamda Inklyuziv va Raqobatbardosh sifatlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Mazkur mexanizm yoshlar uchun kreditlash hajmini oshirishi kutilmoqda.
Inklyuzivlik: loyiha yoshlar tomonidan boshqariladigan yoki yoshlar egaligidagi MKO‘Klarning moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Raqobatbardoshlik: Davr Bankning yoshlar segmentiga yo‘naltirilgan mahsulotlari va kreditlash salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi, shu orqali ushbu segmentga xizmat ko‘rsatishda banklararo raqobatni oshiradi.

Mijoz haqida ma’lumot

DAVR BANK
Davr Bank O‘zbekistondagi xususiy tijorat banki bo‘lib, chakana va MKO‘K segmentlariga yo‘naltirilgan faoliyat yuritadi. 2025-yil yakuniga ko‘ra, DB jami aktivlar bo‘yicha taxminan 1,3 foizlik bozor ulushiga ega bo‘lgan hamda kredit portfeli hajmi bo‘yicha 35 ta bank orasida 18-o‘rinni egallagan.

YTTB moliyalashtirishining qisqacha tavsifi

25 000 000,00 AQŞ dollari ekvivalenti

Loyihaning umumiy qiymati

25 000 000,00 AQŞ dollari ekvivalenti

Qo‘shimcha qiymat (additionality)

Qo‘shimcha qiymat quyidagilar orqali ta’minlanadi: (i) avvalgi Yoshlar Biznesda mexanizmlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga asoslangan holda Natijaga asoslangan kompensatsiya (RBC) mexanizmini o‘z ichiga olgan innovatsion moliyalashtirish tuzilmasi; (ii) mahalliy bozorda mavjud bo‘lmagan shartlar va muddatlarda, ehtimol sintetik so‘mda, o‘rta va uzoq muddatli moliyalashtirishning taqdim etilishi; (iii) Yoshlar Biznesda dasturi doirasida Davr Bank hamda yoshlar MKO‘Klari uchun maslahat ko‘magi orqali salohiyatni oshirish; va (iv) Gender SMART komponentiga ko‘ra Davr Bank YTTB mablag‘laridan foydalanishning kamida 33 foizini yosh ayollar tomonidan boshqariladigan MKO‘Klarga ajratish hamda benefitsiarlarni gender kesimida kuzatib borish majburiyatini oladi.

Ekologik va ijtimoiy jihatlar bo‘yicha qisqacha ma’lumot

FI (moliyaviy muassasa) toifasiga kiritilgan (2024-yilgi Ekologik va ijtimoiy siyosat — ESP). Davr Bank YTTBning amaldagi mijozidir. Mijoz YTTB bilan imzolagan amaldagi kredit shartnomalari doirasida YTTBning 2, 4 va 9-Ekologik va ijtimoiy talablariga (ESR) rioya qilmoqda. Munosib subloyihalar Markaziy Osiyo Yoshlar Biznesda dasturining Moliyalashtirish siyosati (Policy Statement) bayonotiga muvofiq O‘zbekistondagi 35 yoshgacha bo‘lgan sub-qarz oluvchilarni qo‘llab-quvvatlaydi va bunday subloyihalarning ekologik hamda ijtimoiy xatari past-o‘rta darajada bo‘lishi kutilmoqda. Asosiy ekologik va ijtimoiy xatarlar moliyalashtiriladigan subloyihalardan kelib chiqadigan ehtimoliy ta’sirlarga taalluqlidir. Ekologik va ijtimoiy tahlil mijozning eng so‘nggi yillik ekologik va ijtimoiy hisobotini ko‘rib chiqish orqali amalga oshirilgan. Davr Bank munosib subloyihalarning xatar profiliga mos deb hisoblangan Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimiga (ESMS) ega.

Mijoz tomonidan moliyalashtiriladigan sub-qarz oluvchilar amaldagi milliy ekologik, ijtimoiy, sog‘liqni saqlash, xavfsizlik va mehnat qonunchiligiga rioya qilishi shart. Davr Bank YTTBga yillik ekologik va ijtimoiy hisobotlarni taqdim etishda davom etadi; ushbu hisobotlarda ESMSning amalga oshirilishi, YTTB talablariga rioya qilinishi, subloyihalarni saralash natijalari va har qanday muhim ekologik va ijtimoiy hodisalar batafsil ko‘rsatiladi. Davr Bank, shuningdek, 2024 yilgi Ekologik va ijtimoiy siyosatga muvofiq o‘z Ekologik va ijtimoiy xatarlarlarni boshqarish tizimi (ESMS) haqida ma’lumotni jamoatchilikka oshkor qilishni davom ettirishi talab etiladi.

Parij kelishuviga muvofiqlik

Bilvosita moliyalashtiriladigan investitsiyalar uchun YTTBning Parij kelishuviga muvofiqlik yondashuvi qo‘llanilib, loyiha ushbu kelishuvga muvofiq deb topilgan. Bu xulosa 1-ustun (kontragentning Parij kelishuviga sodiqligi) va 2-ustun (subbitimlarni saralash) talablarining qo‘llanishiga asoslanadi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish (GET)

Qo‘llanilmaydi

Yashil baholashlar

Qo‘llanilmaydi

Texnik hamkorlik va grant moliyalashtirishi

Loyiha YTTBning Kichik biznes uchun maslahatlar (ASB) dasturi orqali yoshlar egaligidagi va yoshlar tomonidan boshqariladigan MKO'Klarning salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan Texnik hamkorlik bilan qo'llab-quvvatlanadi. Dastur YTTB Aksiyadorlar maxsus jamg'armasi (SSF) tomonidan moliyalashtiriladi.

Texnik ko'mak bo'lmagan qo'llab-quvvatlash: Bundan tashqari, mijoz kredit summasining 3 foizigacha, lekin 750 000 AQŞ dollaridan oshmagan miqdorda Natijaga asoslangan kompensatsiya (RBC) grantini olish huquqiga ega bo'ladi. Rag'batlantirish mijozning Yoshlar Biznesda kreditlash faoliyatini yo'lga qo'yish va barqaror kengaytirish uchun talab etiladigan dastlabki investitsiyalarni qisman qoplashga qaratilgan. RBC YTTB Aksiyadorlar maxsus jamg'armasi (SSF) tomonidan moliyalashtiriladi.

Kompaniyaning aloqa ma'lumotlari

Jasur Khasanov, Bosh direktor o'rinbosari
j.xasanov@davrbank.uz
+99871 207 40 40 (ichki 137)
www.davrbank.uz
O'zbekiston, Toshkent shahri, Navoiy - Zarkaynar ko'chasi, A bloki

PSD oxirgi marta yangilangan sana

2026-yil 15-iyul

O'tish davri nima

O'tish davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumotni mana bu havoladan olishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:
Tel: +44 20 7338 7168
E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar uchun YTTB xaridlari sahifasiga o'ting:
Tel: +44 20 7338 6794
E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy ma’lumotlar

Aniq so‘rovlar YTTB so‘rovlar shaklidan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o‘zining “ekologik jihatdan mas’ul va barqaror rivojlantirish” tashabbusini ilgari surishda Ekologik va ijtimoiy siyosat va uning tarkibiy qismi bo‘lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo‘llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta’minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko‘rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o‘z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta’sirining mohiyati va ko‘lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug‘ilganda, YTTB o‘z mijozlaridan qo‘shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta’sirlari haqida ma’lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko‘rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar ESPning quyidagi sahifasida keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me’yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas’uliyatli boshqaruvga ko‘maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg‘or xalqaro tajribalarga muvofiq bo‘lishini ta’minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo‘lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo‘l qo‘yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko‘ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste’mol qilish bo‘yicha ma’lumotni tekshiruvchi mas’ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo‘lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig‘iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com electron manzili orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma’lumotlar tegishli choralar ko‘rish uchun OCCO tomonidan ko’rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonym tarzdagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko‘rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma’lumotlar yaxshi niyatni ko‘zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga koʻmaklashish uchun manfaatdor tomonlarga maʼlumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday maʼlumotlar olish mumkinligini bilish uchun Axborotdan foydalanish siyosati sahifasiga oʻting.

Muayyan savollaringizni YTTBning maʼlumot soʻrovi orqali yuborishingiz mumkin.

Loyihalar bilan bogʻliq shikoyatlarni koʻrib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita oʻzaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga boʻlgan urinishlari samarasiz boʻlsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi yaʼni loyihalar bilan bogʻliq shikoyatlarni koʻrib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) oʻzlarining oʻsha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

Loyihalar bilan bogʻliq shikoyatlarni koʻrib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga koʻra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin boʻlgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish boʻyicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari oʻrtasidagi oʼzaro aloqalarni oʻrnatish va muloqotlarni olib borish; - Bank tomonidan ishlab chiqilgan Ekologik va ijtimoiy siyosat talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli Axborotdan erkin foydalanish siyosati qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tugʻilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan koʻriladigan choralarini koʻzda tutish.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil maʼlumot olish, koʻrib chiqilishi kerak boʻladigan shikoyatlarni joʻnatish uchun Loyihalar bilan bogʻliq shikoyatlarni koʻrib chiqish mexanizmi vebsaytiga kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qoʻshimcha maʼlumot olish va shikoyat joʻnatish uchun ipam@ebrd.com electron pochta orqali biz bilan bogʻlanishingiz mumkin.